








Nogironligi bor insonlar bolalarini bog‘chaga berishidagi imtiyozlar


illyustratsiya	Oson matn
	Bu maqolada sen bolangni bog‘chaga berishdagi imtiyozlar haqida bilib olasan.
	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirliklarining 2016-yil 23-avgustdagi 2821-sonli qaroriga ko‘ra bog‘cha uchun pul to‘lashda ba’zi insonlarga imtiyozlar berilgan.
	**Bog‘cha uchun pul to‘lashda imtiyozi bor insonlar:** ● nogironligi bor bor ota-onalar ● kam daromadli oilalar.
	**Kam daromadli oila –** bu daromadi bir oyda bir kishi uchun 568 000 (besh yuz oltmish sakkiz ming) so‘mdan kam bo‘lgan oila.
	**<u>Masalan:</u>** ● sening oilngda 5 kishi **yashaydi** ● oilangda faqat 2 kishi **ishlaydi**


	• shu ikki kishining oyligi oilangdagi 5 kishiga bo‘linadi • bo‘linganda har bitta inson uchun 568 000 (besh yuz oltmish sakkiz ming) so‘mdan ko‘p pul to‘g‘ri kelsa • ota-onadan birida **nogironlik bo‘lsa ham** farzandlaring uchun bog‘chaga **pul to‘laysan.**
	Bog‘cha pulini to‘lamaydigan bolalar ro‘yxatini tayyorlashda kerak bo‘ladigan hujjatlar: • mahalla bergan oila **mulki haqidagi ma’lumotnoma** • bog‘chadagi **ota-onalar bilan ishlaydigan bo‘lim xulosasi**
	Bog‘cha pulini i to‘lamaydigan bolalarning ro‘yxati **har yili 25-sentyabrgacha** bog‘cha **rahbarining buyrug‘i** bilan **tasdiqlanadi.**
	Pul to‘lamaydigan bolalar ro‘yxatiga kirmay qolgan bolalarning **alohida ro‘yxati** tuziladi.

	Pul to‘lamaydigan birorta bola **bog‘chaga bormasa** o‘rniga **alohida ro‘yxatga** olingan bolalardan biri qabul qilinadi.
	Sening farzandingda jismoniy yoki aqliy nogironlik bo‘lsa, bog‘chada bolangga kerak bo‘ladigan narsalar uchun pul to‘lamaysan.
	Seni bolangda: • gapirishda nuqsoni bo‘lsa • eshitishda ya’ni ikkinchi va to‘rtinchi darajali karlik bo‘lsa • ko‘rishda nuqsoni bo‘lsa • oyoq, qo‘l, bosh, umurtqa va boshqa kasalliklar bo‘lsa, sen bog‘chada bolangga kerak bo‘ladigan narsalar uchun pul to‘lamaysan.
	Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra senda birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bo‘lsa, bolangni bog‘chaga joylashtirish uchun **imtiyozli navbatga turishing mumkin.**

	Sen imtiyozli navbat xizmatidan “davlat xizmatlari markazi” orqali foydalanishing mumkin.
	Davlat xizmatlari markazini ko‘pchilik odamlar **“yagona darcha”** deb atashadi.
	Sen bolangni bog‘chaga joylashtirishing uchun ariza to‘ldirishing kerak.
	Arizani to‘ldirishning 2 xil usuli bor: • Davlat xizmatlari markaziga borib murojaat qilishing mumkin • yoki www.my.gov.uz internet manzilida masofaviy ariza to‘ldirishing mumkin.
	Masofaviy ariza to‘ldirish uchun sen: 1. www.my.gov.uz ga internet orqali kirib • telefon raqaming • pasport yoki ID pasporting ma’lumotlarini kiritib ro‘yxatdan o‘tasan

	2. Keyin o‘zing yashaydigan **joy nomi**ni va **bog‘cha raqamini** kiritasan.
	3. Keyin bolangni tug‘ilganlik haqidagi **guvohnomasining (metrika) seriya raqamini** yozasan.
	Shundan keyin seni boshqa kerakli ma’lumotlaring internet orqali aniqlanadi.
	Internetdan olingan ma’lumotlaringni to‘g‘riligini ko‘rib chiqib, tasdiqlashing kerak.
	Ma’lumotlarni tasdiqlashing uchun sening telefoningga **kod raqam** keladi.
	Kelgan kod raqamini www.my.gov.uz ga kiritib, arizani onlayn yuborishing mumkin.

	Ariza topshirib bo‘lganingdan keyin ekranda ko‘ringan **ariza raqamingni** eslatma uchun biror joyga **yozib olishing kerak.**
	Ariza raqami keyinchalik **ariza javobini bilishingda** kerak bo‘ladi.
	Arizangni javobini ko‘rish uchun www.my.gov.uz orqali **mening arizalarim** bo‘limiga kirishing kerak.
	**Mening arizalarim** bo‘limiga kirgandan keyin **ariza raqamini** kiritsang **ariza holati** senga **ko‘rinadi.**
	Bog‘cha to‘lovidagi imtiyoz faqat davlat bog‘chalari uchun amal qiladi.
	Insonlar o‘zlari ochgan **xususiy bog‘chalar** uchun bu **imtiyoz amal qilmaydi.**

	Sen bog‘cha imtiyozidan foydalanishing uchun **yo‘llanma olishing kerak** bo‘ladi.
	Sen yo‘llanma olishing uchun **ariza** to‘ldirishing kerak.
	Yo‘llanma olishingda imtiyozni tasdiqlovchi hujjatning **asl nusxasini** ko‘rsatishing kerak.
	Sen to‘ldirilgan arizada yolg‘on ma’lumotlar aniqlansa, senga **yo‘llanma berilmaydi.**